

NUTQ TOVUSHLARINING TO`RT ASPEKTI

Mansurxonova Muyassarxon Maqsudxon qizi
Andijon Davlat Pedagogika Instituti
pedagogika fakulteti O`zbek tili va adabiyoti
yo`nalishi 2- bosqich 202- guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.12514883>

Annotatsiya: Ushbu maqola fonetikaning to`rt aspekti ya`ni nutq tovushlarining fizik-akustik, anatomic- fiziologik, perseptiv va lingvistik- funksional aspektlari to`g`risida.

**Kalit so`zlar;** nutq tovushlari, to`rt aspekt, fizik- akustik, anatomic- fiziologik, perseptiv, lingvistik- funksional, tovush tembri.

Annotation: This article is about four aspects of phonetics, I.e. physical- acoustic, anatomical- physiological, perceptual and linguistic- functional aspects of speech sounds.

Key words: aspects, physical- acoustic, anatomical- physiological, perceptual and linguistic- functional, speech, sound, timbre.

Аннотация: В данной статье речь идёт о четырёх аспектах фонетики: физико- акустическом, анатомо- физиологическом, перцептивном и лингвофункциональном аспектах звуков речи.

Ключевые слова: звуки речи, четыре аспекта, тон голоса, физико-акустический, анатомо-физиологический, перцептивный и лингвофункциональный.

Tilning tovush tomoni ancha murakkab hodisadir. Kundalik hayotimizda turli xil tovushlarni eshitamiz, masalan, hayvonlarning qichqirig`i, parrandalarning sayrash, suvning shildirashi va boshqalar. Havo to`lqinlari orqali qulog`imiz bilan eshitaladigan barcha hodisalarga tovush deymiz. Inson tomonidan talaffuz qilinadigan tovushlar ham ana shunday tovushlar sirasiga kiradi.

Har qanday tovush ma`lum tashqi ta`sir yordamida havo oqimining tebranishi natijasida hosil bo`ladi. Masalan, ip yoki simni tarang tortib, uni qo`lingiz bilan chertsangiz, havoni tebratadi va tovush chiqadi. Tovushlar **tabiiy** va **inson** tovushlariga bo`linadi. Tabiatdagi insondan tashqarida paydo bo`lgan barcha tovushlar tabiiy tovushlar sanaladi. Tabiiy tovushlardan inson tovushlari, inson nutq a`zolari harakati yordamida ma`lum maqsadda ketma-ket talaffuz qilinishi bilan farqlanadi. Bu esa har qanday nutq tovushining to`rt tomoni mavjudligidan dalolat beradi. Ular quyidagilar: fizik-akustik, anatomik-fiziologik, perseptiv va lingvistik-funksional.

Fizik-akustik aspekt. Eksperimental fonetikaning ushbu aspekti fonetik birliklarning fizik tabiatini tadqiq qiladi. Fonetik birliklarning fizik tabiatiga tovushning balandligi, kuchi, tembri va cho`ziqligi kiradi. Tovushning ovoz, shovqin, qo`shimcha ton kabi komponentlari ham fizik-akustik omillari sanaladi.

1. **Tovushning balandligi-** tovushning un paychalari tebranish chastotasiga bog`liq sifati. Ma`lum vaqt o`lchovida un paychalarining tebranish miqdori ko`p yoki kam bo`lishiga qarab tovush baland yoki past bo`ladi.

2. **Tovushning kuchi-** tovush apparati organlarining faol ishlashiga bog`liq. Chiqarilayotgan havo oqimining tovush tarqalishiga bo`lgan bosimi qancha kata bo`lsa tovush ham shuncha kuchli bo`ladi.

3. **Tovush tembri-** tovushning asosiy ton va yordamchi tonlar qo'shilmasidan tarkib topadigan sifati. Tovush tembrini ifodalovchi va uning boshqa tovushlar tembridan farqini ko'rsatuvchi chastotalar fermentlar deyiladi.

4. **Tovush cho'ziqligi-** tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishi. Tovush cho'ziqligi ikki xil bo'ladi: a) fonologik cho'ziqlik- bunday cho'ziqlik odatda ma'no farqlash uchun xizmat qiladi; b) fonetik cho'ziqlik- urg'uli bo'g'indagi unli biroz cho'ziladi, ammo u so'z ma'mosini farqlash uchun xizmat qilmaydi. Nutq tovushlarining blandligi, kuchi va tembri ularning sifat belgisi sanaladi, ammo cho'ziqligi miqdor belgisi hisoblanadi.

Anatomik fiziologik aspekt. Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning biologik asosini – inson organizmidagi ayrim a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi rolini, ularning tuzilishi va faoliyatini o'rganadi.

Nutq tovushlarining biologik asosini quyidagi turlarga bo'lish mumkin: 1) nutq a'zolarining anatomiyasi; 2) nutq a'zolarining fiziologiyasi; 3) nutq a'zolarining ijro kechimi.

Nutq a'zolarining anatomiyasi deyilganda shu a'zolarining shakli, tuzilishi, o'rni nazarda tutiladi. Bunday a'zolar quyidagi apparatlarga birlashadi:

- a) nafas apparati – o'pka, bronxlar, traxeya, diafragma, ko'krak qafasi;
- b) bo'g'iz bo'shlig'i – traxeyaning yuqori (kengaygan) qismi. Bu apparatdagi eng faol a'zolar un paychalaridir;
- d) halqum- bo'g'izdan yuqoriroqda joylashgan bo'shliq;
- e) og'iz bo'shlig'i- til, kichik til, tishlar, lablar, lunjlar, qattiq va yumshoq tanglay, til osti muskulidan iborat apparat;
- f) burun bo'shlig'i- qo'shimcha ton manbai.

Nutq a'zolarining fiziologiyasi deyilganda shu a'zolarining hayotiy kechimlari, muhit bilan bo'ladigan munosabatlari nazarda tutiladi.

Nutq a'zolarining ijro kechimi – nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi ishtiroki. Bunday kechim nutq a'zolarining fiziologiyasi bilan bog'liq. Odatda nutq a'zolarining harakati va holati artikulyatsiyani shakllantiradi.

Eshitib his etish aspekti(perseptiv aspekt). Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning eshitish a'zolariga his etish orqali so'zning ma'nosini yoki gap va nutq mazmunini idrok qilish qonuniyatlarini o'rganadi. Ma'lumki inson tashqi dunyoni o'zining sezgi a'zolari orqali his etadi, ko'radi, eshitadi, sezadi. Fonetik birliklar ham moddiy – material hodisa sifatida insonning eshitish a'zolariga tasir ko'rsatadi, ammo bu ta'sir shunchaki moddiy ta'sirigina emas, balki fonetik so'zning yoxud gapning ta'siri bo'ladi. Shuning uchun har qanday so'zni, so'z shaklini yoki gapni eshitganimizda ongimizda shu birliklarning ma'nosi yoki mazmun obrazi gavdalanadi. Bunday his etish, idrok qilishsiz tining birorta funksiyasi amalga oshirilmaydi.

Lingvistik-funksional aspekti. Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning til mexanizmidagi rolini, demak, tilning ijtimoiy mohiyatini belgilashdagi ahamiyatini o'rganadi. Tilshunoslikda fonetikaning bu aspekti fonologiya deb ataladi.

References:

1. Shavkat Rahmatullayev "Hozirgi o'zbek adabiy tili" H.Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili"